O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta’limi vazirligi

ISSN: 2992-9008
UDK: 37

TA’LIM VA TARAQQIYOT

Ilmiy-uslubiy jurnali

2026-YIL 5-SON

www.journal.namspi.uz

Bosh muharrir: *Namangan davlat pedagogika instituti rektori B.E.Xusanov*
Mas'ul muharrir: *Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor M.R.Qodirxonov*
Mas'ul muharrir o'rinbosari0: *Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedogogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i J.A.Yuldashev*

T A H R I R H A Y ' A T I

Aniq va tabiiy fanlar: *k.f.d., prof. Sh.Abdullayev, f-m.f.d., dots. R.Xakimov, k.f.d., prof. N.Vohidova, k.f.d., dots. M.Qodirxonov, b.f.d., dots. A.Batashov, f-m.f.n., dots., T.Abdullayev, p.f.n., dots. M.Eshnazarova, p.f.n., dots. G'.Nafasov, p.f.n., dots. M.Boltayeva.*
Texnika fanlari: *t.f.d., prof. A.Umarov, t.f.d., prof. A.Qayumov, PhD, dots. Sh.Xudoyqulov, PhD, dots. Abdunazarov.*
Ijtimoiy-gumanitar fanlar: *s.f.d., prof. T.Fayzullayev, tar.f.d, prof. A.Rasulov. f.f.d., prof. M.Ismoilov, i.f.d., dots. N.Sotivoldiyev, t.f.n., dots. A.Isoqboyev, f.f.n., dots. O.Mamatov, t.f.n., dots. Z.Haydarov, PhD. J.Yuldashev, PhD. A.Abdullayev.*
Pedagogika fanlari: *p.f.d., prof. B.Xodjayev, p.f.d., prof. X.Najmiddinova, p.f.d., prof. T.Ismoilov, p.f.d., prof. S.Abdullayev. p.f.d., prof., M.Y.Sobirova, p.f.d., prof., R.Zamilova, p.f.d., prof. Sh.Xujamberdiyeva, p.f.d.,dost. M.Asqarova, PhD S.Jamoldinova, PhD, dots. M.Asranboyeva.*
Filologiya fanlari: *fil.f.d., prof. N.Uluqov, fil.f.d., prof. H.Usmanova, f.f.d., dots. X.Shokirova, p.f.n., dots. S.Misirov, p.f.n., dots. Sh.Ubaydullayev, PhD.,dots. P.Lutfullayev, PhD., dots. M.Yakubbayev.*

Texnik muharrir: R.Tursunov

Tahririyat manzili: Namangan shahri, Uychi ko'chasi, 316-uy.
Pochta indeksi: 160136, ***Faks:*** (0369) 227-27-21,
Email: Info@namspi.uz

"Ta'lim va taraqqiyot" ilmiy-uslubiy jurnali elektron to'plam sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi ***Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA)ning 2022-yil 25-oktabrdagi № 045044 raqamli guvohnomasi*** *asosida chop etiladi. Jurnal* ***Oliy Attestatsiya komissiyasining 2024-yil 30-noyabrdagi (№ 364/5) yig'ilishi qaroriga asosan pedagogika fanlari bo'yicha*** *falsafa fanlari doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan. UDK: 37, Xalqaro standartlashtirish raqami (ISSN): 2992-9008.*

Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma'lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI 2026

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA YO'NALISHI TALABALARINING KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI (INGLIZ TILI MATERIALI MISOLIDA)

Misirov Sohibjon Abdupattayevich
Namangan davlat chet tillari instituti dotsenti, pedagogika fanlari doktori (DSc)
E-mail: sohibjon.misirov.76@mail.ru +99893-776-63-34

Annotatsiya: *Ushbu maqola pedagogika va psixologiya yo'nalishi talabalarining ingliz tilida kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish, kasbiy va sohaviy yo'nalishlarda ingliz tili o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari muammolariga bag'ishlanadi.*

Kalit so'zlar: *ingliz tilini chet til sifatida o'qitish (English as a Foreign language), ingliz tilini muayyan maqsadlarda o'qitish (English for spesific purpoces (ESP), ingliz tilini kasbiy yo'naltirish (Professional development).*

ВОПРОСЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У СТУДЕНТОВ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ СПЕЦИАЛЬНОСТЕЙ (НА МАТЕРИАЛЕ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА)

Аннотация: *В статье рассматриваются вопросы формирования профессиональной компетентности в области английского языка у студентов педагогических и психологических специальностей, а также специфика и трудности, связанные с преподаванием английского языка в профессионально-ориентированном контексте.*

Ключевые слова: *английский язык как иностранный (EFL), английский язык для специальных целей (ESP), профессиональное развитие средствами английского языка.*

ISSUES IN DEVELOPING PROFESSIONAL COMPETENCE AMONG STUDENTS IN THE FIELDS OF PEDAGOGY AND PSYCHOLOGY (BASED ON ENGLISH LANGUAGE INSTRUCTION)

Abstract: *This article addresses the development of professional competence in English among students in the fields of pedagogy and psychology, as well as the specific characteristics and challenges associated with teaching English within professional and specialized contexts.*

Keywords: *English as a Foreign Language (EFL), English for Specific Purposes (ESP), professional development in English.*

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

KIRISH

Xorijiy tillarni xalqaro va davlatlararo muloqotning asosiy vositasi sifatida o‘rganishda yuqori malakali kadrlar tayyorlash asosiy omillardan biriga aylanmoqda. Binobarin, ta’lim-tarbiya va o‘qitish usullari, zamonaviy axborot hamda pedagogik texnologiyalari foydalanish, xorijiy tillarni puxta o‘zlashtirish, ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash ko‘nikmalariga ega malakali (professional) pedagog kadrlar tayyorlash muhim masala ekanligi belgilab berilgan [2].

Bugungi zamonaviy pedagog va psixolog mutaxassislar uchun turli davlatlardagi hamkasblari bilan kasbiy va sohaviy yo‘nalishlarda o‘zaro muloqot qila olishdek malakaga ega bo‘lish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki, chet tillarni o‘zlashtirish natijasida talabalar yanada ko‘proq ma’lumotlarga ega bo‘lib, ularda kasbiy malakalarini rivojlantirish imkoniyati kengayadi, bularning barchasi “Chet til” o‘quv predmetining ijtimoiy maqomi oshganligidan dalolat beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

“Chet til” atamasi XVIII asrning ikkinchi yarmida paydo bo‘lganligi haqida metodik va lingvistik adabiyotlarda ma’lumotlar mavjud. Bu haqda buyuk lingvist va metodist olim L.V.Shcherba va uning shogirdi I.V.Raxmanov “chet tilni o‘quv predmeti“ sifatida paydo bo‘lganligi XVIII asrning ikkinchi yarmiga to‘g‘ri kelishinii o‘z asarlarida izohlab o‘tishgan.

Bunday ma’lumotlar inglizzabon mamlakatlar olimlarning ishlarida ham o‘z tasdig‘ini topgan: “….modern “languages began to enter the curriculum of European schools in the eighteenth century” - ya’ni zamonaviy tillar Yevropa maktablari o‘quv rejasiga XVIII asrda kiritilganligi ta’kidlab o‘tilgan [7]. Shuni aytib o‘tishimiz joizki, mualliflar zamonaviy chet tillar sirasiga ingliz, nemis, fransuz, ispan va italyan kabi xorijiy tillarni o‘rganishni nazarda tutishgan. Bundan shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, chet til o‘qitish tarixi ko‘p yuz yilliklarga to‘g‘ri keladi [4].

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Tadqiqotchilardan V.M.Aleksander birinchi marotaba nofilologik oliy o‘quv yurtlarida chet til o‘rganishning quyidagi maqsadlarini aniqladi: 1. Lug‘at yordamida kasbiy va sohaviy adabiyotlarni o‘qib tushunish; 2. Lug‘at yordamida kasbiy va sohaviy adabiyotlarni tarjima qilish; 3.O‘rtacha qiyinchilikdagi kasbiy va sohaviy og‘zaki nutqni tushunish va sodda gaplarni qo‘llab fikr bayon eta olish [3].

Rossiyada XX asrning 30-40-yillarida chet tildan kirish imtixonlari topshirish yo‘lga qo‘yildi. 1938 yilda ilk bor chet til o‘qitish bo‘yicha dasturlar ishlab chiqildi. Mashhur metodist olimlardan L.V.Shcherba, K.A.Ganshina, va I.A.Gruzinskayalar chet til o‘qitishda yangi yondashuvlarni fan olamiga kiritdilar.

1950 yillarda ta’lim oluvchilarning kasbiy tayyorgarligi bo‘yicha tadqiqotlar olib borildi. 1960 yillar oxirida “Ingliz tili maxsus maqsadlarda o‘rgatish – ESP” yangi ilmiy-metodik yo‘nalishiga asos solindi. XX asrning 80-yillarida kommunikativ o‘qitish tizimini shakllantirish bo‘yicha Ye.I.Passov va G.A.Kitaygorodskayalar qator ilmiy izlanishlar olib bordilar. 1990 yilda Ye.I.Passov tomonidan chet til ta’limi konsepsiyasi yaratilgan bo‘lsa, V.V.Safonova tomonidan chet til o‘rgatishning zamonaviy ijtimoiy yondashuv ishlab chiqildi.

Tadqiqotchilardan A.A.Ribkina, kasbiy yo‘naltirilgan chet tilni egallash ta’lim oluvchilarning kasbiy va sohaviy malakalarini rivojlantirish, tili o‘rganilayotgan mamlakatga oid axborotlarni bilish hamda tilshunoslik oid bilimlariga asoslangan ko‘nikmalarni egallashni ko‘zda tutadi deb ta’kidlaydi. [8]. Chet til ta’limi bo‘yicha mavjud bo‘lgan adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ko‘p yillar mobaynida chet tillarni o‘zlashtirish pedagogika sohasining bir yo‘nalishi yoki bo‘limi bo‘lib, lingvistik soha deb hisoblangan [4]. Mamlakatimizda ham nofilologik oliy o‘quv yurtlarida chet til o‘qitish (English as a Foreign language), ingliz tilini kasbiy va sohaviy yo‘nalishlarda o‘qitish - ESP muammolari atroflicha o‘rganilgan sohalardan biri hisoblanadi. Tadqiqotchilardan Sh.Abdullaevaning ta’kidlashicha, chet tilini nofilologik yo‘nalishlarda amaliy, ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarga o‘rgatiladi. Bizning fikrimizcha, olima

ko‘rsatib o‘tgan to‘rtta maqsadga qo‘shimcha qilib, beshinchi maqsadni, ya’ni chet tilni kasbiy yo‘naltirilganlik (professionalizasiya) asosida ham amalga oshirish lozim, deb hisoblaymiz.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ingliz tili o‘qitishni kasbga yo‘naltirish – jamiyat ehtiyojidan kelib chiqqan holda tahsil oluvchiga muayyan bir kasb, mutaxassislik va ixtisoslikni o‘rgatishning ta’limiy jarayoni hisoblanadi. Chet til o‘quv predmetini o‘rganish shu til yordamida kasbiy va sohaviy mavzularda axborot olish va boshqalarga yetkazish ma’nosini bildiradi. O‘zlashtirilgan axborotlar talabalarning bilim saviyalarini yanada oshirishdan tashqari ularning kasbiy malakalarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Kuzatishlar va ish tajribalari shuni ko‘rsatmoqdaki, pedagogika va psixologiya yo‘nalishi talabasi ko‘pincha chet tilini egallashda til to‘siqlarini enga olmaydi, o‘z fikrini erkin bayon qila olmaydi. Mazkur muammolar quyidagilar: 1. Pedagogika va psixologiya yo‘nalishi talabalarida chet tilda kasbiy malakalarni rivojlantirish uchun auditoriya soatlari miqdorining kamligi; 2. Pedagogika va psixologiya yo‘nalishi talabalarida chet tilda kasbiy malakalarni rivojlantirish texnologiyalarini ingliz tilini o‘qitish jarayonida takomillashtirish zaruratining mavjudligi; 3. Pedagogika va psixologiya yo‘nalishida ingliz tilini o‘qitish jarayonida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan tegishli tarzda foydalanilmaslik holatlarining kuzatilayotganligi; 4. Ta’lim sifatini oshirish uchun innovasion metodikalardan muntazam foydalanish lozimligi; 5. Talabalar tayyorgarligi darajasining past ekani, kerakli darajada chet tilni o‘zlashtirgan shaxs sifatida shakllanishga motivasiya yo‘qligi va boshqalar.

TAHLIL VA NATIJALAR

Pedagogika va psixologiya yo‘nalishidagi malaka talablari chet tillarni o‘rganishda kasbiy o‘ziga xoslikni, uning bitiruvchisini kelgusi kasbiy faoliyati vazifalarini amalga oshirishni hisobga olishni talab etadi. Shunga binoan, oliy ta’lim tizimini kelgusida kompleks rivojlantirishning eng muhim vazifalari belgilab berilgan.

Ular quyidagilardan iborat: 1. O‘quv jarayoniga xalqaro ta’lim standartlariga asoslangan eng zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalari, ta’lim dasturlari, malaka talabalari hamda o‘quv-metodik materiallarni keng joriy etish; 2. Ta’lim jarayonida yangi avlod o‘quv qo‘llanma va darsliklarini yaratish, oliy ta’lim tizimiga keng tatbiq etish; 3. Oliy ta’lim muassasalarini zamonaviy o‘quv-metodik va ilmiy adabiyotlar bilan ta’minlash; 4. Har bir oliy ta’lim muassasasi tomonidan xorijdagi yetakchi turdosh ta’lim muassasalari bilan istiqbolli hamkorlik aloqalarini yaqindan yo‘lga qo‘yish; 5. Ilmiy-pedagogik faoliyatga yuqori malakali xorijiy mutaxassislarni jalb etish [1].

XULOSALAR

Pedagogika va psixologiya yo‘nalishida ingliz tilini o‘zlashtirish ehtiyoji ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida qaralishi zarur, chunki, talabalarda chet til ta’limi asosida kasbiy malakalarni rivojlantirishning konseptual asoslari bugungi kunda ijtimoiy pedagogik zaruriyatdir. Bu borada kasbiy yo‘naltirilgan chet til ta’limini tashkil qilish orqali talabaning kasbiy malakalarini rivojlantirish amalga oshadi, raqobatbardosh mutaxassis kadrlar tayyorlanishiga zamin yaratiladi.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora- tadbirlari to‘g‘risidagi PQ-2909-son qaror. //Toshkent oqshomi., 2017 yil 21.04. № 85.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 fevraldagi “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora–tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-4623

3. Aleksander V.M. Metodika prepodavaniya nemeskogo yazika: Uchebnoye posobiye. – M. –L.: Akademiya nauk,1934 –72 s.

4. Djalalov D.D. Soovremenniy didakticheskiy status uchebnogo predmeta. “Inostrannыy yazik”//TDPU. Ilmiy axborotlari. Ilmiy nazariy jurnal. – 2014.– №1. – S.4-10.

5. Lyaxoviskiy M.V. O nekotorix bazisnix kategoriyax metodiki obucheniya inostrannim yazikam // Inostrannыye yaziki v shkole. – 1973. – №1. – S.27-34.

6. Muslimov N.A. Kasb ta’lim o‘qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: Ped. fan. dokt....dis. –T, 2007. – 305b

7. Richards J.C., Rodjers S. Aprochhers and Methods in Language Teaching, London: Cambridge University Press. 2001. 3dprinting 2002. USA.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

8. Ribkina A.A. Pedagogicheskiye usloviya formirovaniya professionalnix umeniy kursantov uchebnix zavedeniy MVD v prosesse obucheniya inostrannomu yaziku. –Saratov: Saratovskiy yuridicheskiy institut MVD Rossiya, 2005. – 152 s